

2024-yil 1-fevral kuni rejalashtirilgan Toshkent-Frankfurt va Frankfurt-Toshkent aviaqatnovlari yo'lovchilari diqqatiga!

2024 31 Yanvar

2024-yil 1-fevral kuni bo'lib o'tadigan va Frankfurt-na-Mayne xalqaro aeroporti faoliyatini cheklaydigan, Germaniyaning bir qator shaharlarida kasaba uyushmalarining ish tashlashlari munosabati bilan, Uzbekistan Airways faqat 1-fevral kuni amalga oshirilishi rejalashtirilgan HY231/232 TAS-FRA-TAS aviaqatnovlarini bekor qilishga majbur bo'ldi.

Bekor qilingan aviaqatnov yo'lovchilariga aviakompaniyaning 2024-yil 5-fevral kuni bajarilishi rejalashtirilgan aviaqatnovi uchun aviachiptani qayta bron qilish taklif etiladi.

Batafsil ma'lumot olish uchun Uzbekistan Airways Aloqa markazi +998 78-140-02-00 raqami yoki aviakompaniyaning Frankfurt-na-Mayne shahridagi vakolatxonasiga murojaat qilishingizni so'raymiz.